

RESEARCH ARTICLE

Models Of Translating Somatic Component Proverbs From Dari Into Uzbek

Nargizakhon Mirakhatova

1st-Year Master's Student, Linguistics Tashkent State University of Oriental Studies Toshkent, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 114-116

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-Noncommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Abstract

This article presents some of the Dari proverbs that include the so-ma-tic components that make up the main system of Dari language, compares them with Uzbek proverbs, analyzes their translation and alternative versions, and uses tra-ditional translation methods.

KEY WORDS

Somatisms, proverbs, somatic lexicon.

INTRODUCTION

Tilshunoslarning somatizmga bo'lgan qiziqishi, inson o'zini o'z ta-nasining his-tuyg'ulari orqali paydo bo'ladigan sezgilar bilan shaxs si-fatida anglash jarayonini boshlaganligi bilan izohlanadi, shuning uchun somatik leksika eng qadimgi universallardan biridir. Maqol-lar-da somatik leksikaning ishlashi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Gar-chi bu juda cheklangan leksik va tematik guruh bo'lsa-da, maqol va ma-qol-lardagi somatik leksika orqali hayotning eng xilma-xil to-mon-la-ri: his-tuyg'ular, ichki kechinmalar, oilaviy munosabatlar, bolalarni tar-biyalash, mehnatga munosabat, kundalik xatti-harakatlar ha-qi-da-gi g'oyalarni ilgari surish mumkin.[3] Har bir millat madaniyatida so-matik birliklar orqali ifodalanadigan maqollar majmui mavjud.

Ular shu xalq dunyo qarashini, dinini, urf-odatini, yashash tar-zi va tarixini o'zida mujassamlashtiradi [2,25-28]. Ko'pchilik til-lar-da-gi maqollarning salmoqli qismini somatik komponentli ma-qol-lar tashkil etadi. Maqollardagi eng sermahsul somatizm xar bir xalq-ning o'z mentaliteti va tilning o'ziga xos xususiyatiga ko'ra bir-bi-ri-dan farq qiladi. Masalan, o'zbek tilida "bosh" somatizmi ahamiyati yu-qori, darajasiga ko'ra baland turuvchi narsalarni bildiradi va ma-qol-larda shaxs o'rnida keng foydalaniladi.

"Maqol va matallar xalq aql-idrokining mahsuli, uning hukmi, ko'p asrlik tajribalari, turmushdagi turli hodisa- voqealarga munosa-ba-ti demakdir. Maqol kundalik hayotda, kishilarning bir-birlariga mu-nosabatida yaratiladi. U xalq maqoli- xalq mulkidir. Maqol qay-g'usi-xalq qayg'usi. Maqol g'azabi- xalq g'azabi, maqol kulgusi- xalq kul-gusi va maqol kinoyasi- xalq kinoyasi demakdir. Maqol ya-rat-magan birona til, maqol ishlatmagan birona xalq yo'q." [1,7].

Somatizmlar – bu inson yoki hayvon tanasi qismlarining nominatsiyasi uchun qo'llaniladigan otlar hisoblanadi. Somatik leksika deganda, tarkibiy qismi inson tanasining qismlari, hayvonlar tanasining qismlari so'zlaridan tashkil topgan birliklarga aytiladi. Bu atama biologiyada, tibbiyotda "inson tanasi bilan bog'liq narsa" ma'nosida ishlatilishi mumkin va "aqliy" tushunchasiga ziddir.

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida tilshunoslar somatik leksikaga alohida e'tibor qaratib madaniyatlararo muloqot muammolarining kerakli yechimlarini topishga, tilning leksik tarkibini o'rganish samaradorligini oshirishga harakat qilib kelmoqdalar. Bu atama birinchi marta F.O.Vakk tomonidan tilshunoslikka kiritilgan. Maqol — xalq og'zaki ijodidagi rang-

barang, qisqa va lo'nda bo'lsada, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal ma'noli murakkab bo'lgan hikmatli ibora hisoblanadi.

Dariy tili qadimiy til bo'lgani sababli katta miqdordagi maqollarni o'z ichiga oladi. Maqollarda tilning o'ziga xos xususiyatlari va milliylik aks etib, xalqning qadriyatlari, an'analari, turmush tarzini ifodalab keladi. Ushbu tilda ham ko'plab somatik maqollarni uchratish mumkin. Quyida dariy tilidagi دندآن , لب , زبان somatik komponentlari ishtirok etgan maqollar tahlilini keltiramiz:

زبان zamon so'zining bosh, yetakchi lug'aviy ma'nosi "til" bo'lib, inson og'iz bo'shlig'ining ichida joylashgan yumshoq qismi bo'lib, muloqot vositasi hisoblanadi. Ushbu somatizm qatnashgan maqollar ham ko'pchilikni tashkil etadi: بسکه گفتم زبان من فرسود:

Mazkur maqolning so'zma-so'z tarjimai "ko'p aytganimgan, mening tilim yaroqsiz holatga keldi" bo'lib, biron kim kimsaga juda ko'p bora nasihat qilaverganidan yoki o'rgataverganidan tili og'rib qolgani ma'nosini bermoqda. Bu maqolga bir necha muqobillarni berish mumkin: "Senga o'rgatib, o'zimda qolmadi", "oqma quloqqa aytsang, oqib ketar, quyma quloqqa aytsang, quyib olar."

زبان خر را خلج دا Bu maqolning asliy tarjimai "eshakning tilini yaxshi deb o'ylamoq" bo'lib, bir-birining tilini yaxshi tushunadigan, gapi bir yerdan chiqadigan, doim bir-birovining gapini ma'qullab turuvchi kishilarga nisbat berib naql qilingan. Bu yerda "eshak tili" birikmasi majoziy ma'noda qo'llanilib, tili va maqsadi bir bo'lgan kishining nutqi o'rnida ishlatilgan. Ushbu maqolga qisman muqobil sifatida "gung bolaning gapini, kar onasi tushunar" yoki "gung qizining tilini onasi tushunar" maqollarini berish mumkin. زبان سرخ سر سبز میدهد بر باد

Ushbu maqolning so'zma-so'z tarjimai "qizil til yashil boshni xarob qiladi" bo'lib, o'tkir tilning kishi boshiga qanday balalar solishi mumkinligi, ko'p yaxshi amalni birgina yomon so'z barchasini barbod qilishi mumkin. Chunki til bilan qilingan xato, ozor insonga qattiq ta'sir ko'rsatib, qalbdagi o'chmas iz qoldiradi. Shu sababdan, maqolda yomon til qizil til deb, kishining yaxshi amallari yashil bosh sifatida tasvirlanmoqda. Bu maqolga ma'no jihatidan o'zbek tilidagi "boshingaga ne balo kelsa, o'zingdan emas tilingdan ko'r" maqolini berish mumkin. زبان ترجمان دل است

Mazkur maqolning asliy tarjimai "til- dil tarjimonidir" bo'lib,

inson zaboni orqali qalbidagi mavjud borliklarni chiqaradi va ifodalab beradi. Til shunchaki gapirish yoki yozish emas, balki til – odamning tiynati, dil oynasi, madaniyati hamdir. Shu sababdan ham, til dilning tarjimoni ekanligi aytilmoqda, o'zbek tilida bu maqolga aynan "til-dil tarjimoni", "til-dil oynasi", "til-dil kaliti" ekvivalentlari mavjud.

lab so'zining yetakchi, bosh lug'aviy ma'nosi lab bo'lib, og'iz bo'lig'ining ikki darvozasi deb atash mumkin. Quyida lab somatizmi qatnashgan maqollarni ko'rib chiqamiz: آفتاب لب با ما ست

Mazkur maqolning so'zma-so'z tarjimai "tom uzra botib borayotgan quyoshdir" bo'lib, Yoshi ulug', keksa insonlarga nisbatan ishlatilib, uning asosiy diqqat-e'tibor yoshi ulug'ligiga va umri oxirlab borayotgan shaxsga nisbatan ishlatiladi. Bunda keksa va yoshi ulug' kishilarning darajalari va hayotiy bilim, ko'nikmalari yuqoriligi quyoshga o'xshatilmoqda. O'zbek tilida bu maqolga muqobil maqol bo'lmaganligi yuzasidan asliy tarjimai o'zini berish mumkin. لبش بوی شیر میدهد

Ushbu maqolning asliy tarjimai "og'zidan ona sutining hidi ketmagan" bo'lib, hanuz yosh, hayotiy tajribaga ega bo'lmagan, xatti-harakatlari bolalarcha bo'lgan yoshlarga nisbatan ishlatiladi. Dariy tilida bu maqol hisoblandsada, o'zbek tiliga frazeologik birikma sifatida keladi "og'zidan ona suti ketmagan". لب بود که دندآن آمد

Bu maqolning so'zma-so'z tarjimai "lab borki, tish bor" bo'lib, hayotda biron-bir narsaning yolg'iz emasligi, har bir narsaning jufti borligi va hamma narsa bir-biri bilan o'zaro bog'liq ekanligini ifodalab kelmoqda. O'zbek tilida ham aynan tarjimai yoki "ona borki, bola bor" maqolini muqobil sifatida qabul qilish mumkin.

dandân so'zining yetakchi, bosh lug'aviy ma'nosi "tish" bo'lib, inson og'iz bo'shlig'ining qattiq qismini tashkil etuvchi yemishni maydalash funksiyasini bajarish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari tovushlar hosil bo'lishida ham ishtirok etadi. Dandon somatizmi ishtirokidagi maqollar tahlilini quyida ko'rishingiz mumkin: دندابی که درد میکند باید کشید

Ushbu maqolning tarjimai "og'riyatgan tishni sug'urib olish kerak" bo'lib, o'zida chuqur ma'noni kasb etadi ya'ni, bevafo do'st, badxulq zavj yo zavja, dangasa xodimdan voz kechish kerak degan ma'noni bildiradi. Bu yerda sinekdoxa usulidagi ma'no ko'chishi yuz bergan bo'lib, "og'riyatgan tish" biron kimsaning kichik bir qismini ifodalab kelmoqda. Bu maqolga o'zbek tilidagi "yomon xotin – jon zavoli", "yomon xotin o'lsa,

keng to'shak qolar" maqollari qisman to'g'ri keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, dariy tilidagi maqollarning o'zbek tilida muqobillari mavjud bo'lib, bunga qadriyatlar va diniy yaqinlikni sabab qilib ko'rsatish mumkin. Ammo xalqlarning, tillarning individual xususiyatlariga ko'ra ba'zi hollarda maqollarga to'la muqobil topish ham imkonsiz bo'ladi va bunday holatlarda qisman ekvivalent birikmalarni kontekstga ko'ra tanlanishi kerak.

REFERENCES

1. Salomov G'. Rus tilidan o'zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir, O'zbekistan Fanlar akademiyasi nashriyoti. – T.:1961, 7-b.
2. Ibragimovna, G. M. ., & Nargiza, Q. . (2023). Matal va maqollarda somatik birliklar ifodasi. Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 25-28.
3. Муратова, Е. Ю. "Роль соматической лексики в русских пословицах и поговорках"; 2022 | Journal article URI:
4. "Mavlyuda Ibragimovna Gadoyeva somatik leksikaning xususiyatlari // Scientific progress. 2021. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/somatik-leksikaning-xususiyatlari> (дата обращения: 10.05.2023).
5. Muqtadiri, Muhammad Taqining " Zarbo'lmasalhoye forsi dar Afg'oneston"